

JEK LONDONNING “HAYOT QONUNI ” HIKOYASIDA HAYOTGA MUHABBAT TALQINI

Go‘zalxon Muhammadjonova Muhammadovna

FarDU adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti
filologiya fanlari doktori

Xomidova Zeboxon G‘ayratjon qizi

3-kurs o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi
zeboxomidova230@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Jek Londonning hikoyalari tahlili misolida hayotga muhabbat, inson irodasining badiiy talqini masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, inson va tabiat kontekstida poetik tasvir tamoyillari o‘ganilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy mavzular, inson va tasvir, tasvir tamoyillari, portret, peyzaj, hayot haqiqati.

ABSTRACT

The article explores the issues of love for life, artistic interpretation of human will on the example of the analysis of Jack London’s stories. Also, the principles of poetic image in the context of man and nature were learned.

Key words: literary themes, man and image, principles of image, portrait, landscape, reality of life.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются вопросы любви к жизни, художественной интерпретации человеческой воли на примере анализа рассказов Джека Лондона.

Также были изучены принципы поэтического изображения в контексте человека и природы.

Ключевые слова: литературные темы, человек и образ, принципы изображения, портрет, пейзаж, жизненная действительность.

Hayot, hayotga muhabbat bilan yashash, borliqni teran idrok etish badiiy adabiyotdagi muhim muammolardandir. Hayotni oliy ne’mat bilib, uni mazmunli o’tkazish, o’zidan ezgulik qoldirish insoniylikning oliy qadriyati hisoblanadi.[\[2,8\]](#) Hayotdagi qiyinchiliklar ustidan mardonavor kurashish, insonning metindek bardoshi, yengilmas irodasi mavzusi milliy adabiyotimiz bilan bir qatorda jahon adabiyotida ham o’ziga xos yoritilgan. Jumladan, Jek Londonning ko‘plab hikoyalarida chin ma’nodagi kuchli iroda sohiblarining qiyofasi namoyon bo‘ladi.

Kambag‘al oiladan chiqqan amerikalik adib Jek London XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o‘z faoliyati va asarlari bilan butun jahon afkor ommasinining diqqatini o‘ziga qaratdi. Jek London hayotning butun mashaqqatlari, ziddiyatlari, miqyoslari bilan to‘qnash keladi va keyinchalik bu hayot haqiqatlarini o‘z asarlarida badiiy qayta gavdalantiradi. J.Londonning “Shimol hikoyalari” qahramonlarining asosiy qismida kelajakka ishonish hissi kuchlidir. “Hayotga muhabbat” hikoyasi ham “Shimol hikoyalari”dan joy olgan bo‘lib, qahramonning kelajakka bo‘lgan ishonchi, uni shimolning ayovsiz tabiatidan har bir qadamida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga sabab bo‘ladi. U hatto o‘lim bilan olishib, oxir oqibatda uni ham yengadi.[\[3,21\]](#) Bugun biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan “Hayot qonuni” hikoyasi ham boshqa hikoyalar bilan mushtarak va farqli jihatlari bilan ijodida alohida o‘rinni egallaydi.

Jek London asarlarida doimo ham ruhan, ham jismonan kuchli, irodali, hech kimga o‘xshamaydigan iroda sohiblari bosh qahramoni sifatida olinadi. Keksa Koskush ham ana shunday qahramon. Asar Koskushning portreti bilan boshlanadi: “Keksa Koskushning butun vujudi quloqqa aylandi. Uning ko‘zdan qolganiga ancha bo‘lgan, lekin quloqlari avvalgidek sezgir, tiq etgan tovushni pay-qaydi”.[\[1\]](#) Qabila qo‘nimgohni tark etadi. Lekin... Lekin, kekxa, kuchdan qolgan, zaif chol bir qancha

o‘tin uyumlari bilan qoladi. O‘z kunini bazo‘r ko‘rayotgan qabiladoshlar, yana bir “yuk”ni ko‘tarishni xohlashmas va bundan hech kim, qolgan ham ketgan ham, norizo bo‘lmas edi. Chindan ham chol bu ahvolda qolishga rozi edimi? Yozuvchi cholni “aftodahol” [10,119] (forscha “notavon, nochor”) deb ta‘riflaganiga qaraganda u vaziyatda qolishga majburlik yuzasidan rozi.

“Oldinda ularni hayot va tiriklik qonuniyatlari kutmoqda, zinhor-bazinhor ajal emas. Chol esa endi ajalga shu qadar yaqinki...” [2] Ha, allaqachon qabiladoshlar ketib bo‘lishdi... “...ayni kezda uning hayoti shu bir quchoq quruq shox-shabbaga bog‘liq edi” [2]. Keksa Kaskush qurigan novdalarni olovga tashlar ekan, hayolga cho‘mdi va u o‘z otasini Klondaykning yuqori oqimida qanday qoldirib ketganini, buyuk ochlik davri butun qabilani holdan toydirgani, o‘sha ochlikda onasini yo‘qotganini esladi:

“Go‘daklar ojiz ingrashar, tunning tubsiz va zimiston qo‘ynida jon taslim etishar, ochlik ayollar va keksalarga ham ayovsiz chang solardi. Natija shunday bo‘ldi-ki, quyosh bu joylarga qaytib kelganida, har o‘n odamdan bittasigina tirik qolgan edi. Ha, bu dahshatli ochlik davri edi!” [5] Yozuvchining an‘anaviy “mashaqqatlarda toblangan inson” obrazi mana shu yerda o‘z ifodasini topadi. Kaskush umri davomida ko‘p qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tti, endi esa uning oldida o‘lim bilan yuzma yuz kelish qolgan edi, holos.

Keksa Kaskush bolalik chog‘larini o‘ylar ekan, do‘sti bilan bo‘ri qanday qilib bug‘uni o‘ldirganini esladi: “Qordagi izlarga qaraganda, bo‘rilar bug‘uni ikki marta qulatushga muvaffaq bo‘lishgan, lekin o‘lja dushmanlariga jon-jahdi bilan hamla qilganicha oyoqqa qalqqan. ...Zing-Xaning aytishicha, yerga qulagan bug‘uning o‘zini o‘nglab, oyoqqa turishini avval sira eshitmagan ekan. Lekin manavi bug‘u buning uddasidan chiqqan edi.” [7] Asarga hayot uchun kurashib, mo‘jiza ko‘rsatgan bug‘u obrazini kiritilganligi, ya‘ni hayot motivi insonlar taqdiridan hayvonlarga ko‘chganligi ham kitobxon yanada kuchliroq anglash, singdirish uchun turtki vazifasini o‘taydi.

“Vahimali yolg‘izlik... Shu payt qandaydir jonivorning sharpasi sezildi”.⁹ Bu sharpa bo‘lajak ajalning havosini olib kelishini chol sezayotgan edi. Shu payt mo‘jiza yuz berib, uning ko‘zlari bug‘uni va bo‘rilar to‘dasini ko‘radi. “Kaskush u yoqdan bu

yoqqa lip-lip o‘tayotgan kulrang gavdalarni, o‘t sochib turgan ko‘zlar, So‘yloq tishlar, so‘lagi oqib turgan tillarni ham ko‘rdi. ... bo‘rilar irjaygan og‘izlaridan so‘lak sachratib, gulxan atrofini o‘rab olishdi”. [8] Yuqorida keltirilgan parchadagi bo‘rilar haqidagi bu tasvir Londonning yovvoyi hayvonot olamini naqadar yaqindan bilishi, ularning psixikasi, yurish-turishlari borasidagi bilimi naqadar kuchli ekanidan dalolat beradi. Aynan yovvoyi hayvonot dunyosi haqidagi chuqur ilmi London ijodining deyarli barcha o‘rinlarida o‘z aksini topadi. An’anaviy bo‘ri obrazi, u bilan hayot uchun kurashish sahnasi bu hikoyada ham mavjud bo‘lsa-da, boshqa hikoyalaridan farqli o‘laroq kurash keksani vafoti bilan yakunlandi. Buni yozuvchi ochiq-oydin aytmaydi, balki, keksa bug‘u o‘lganini aytadi. Ushbu ramziy talqin orqali cholning umr yakunini anglash mumkin.

“Hayot toqat qilib bo‘lmaydigan darajada mashaqqatga aylanganida undan qutilish naqadar oson”. [3.387] Ha, chindan ham hikoya bosh qahramonni keksa Koskush hayoti davomida inson bolasi anglab yetishi qiyin bo‘lgan mashaqqatlarni boshdan kechirib bo‘lganligi sabab, unda “Hayot qonuni”ga bo‘ysunishdan boshqa iloji qolmagan edi. “Alqissa, hammasi baribir emasmi? Axir, hayot qonuni shuni taqozo etadi”. [9]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. [Muhammadjonova G. Badiiy asar tahlili. Toshkent. “Adabiyot uchqunlari” 2018.](#)
2. [Jek London “Shimol hikoyalari” turkumida oilaviy munosabatlar va gumanizm g‘oyalarining ifodalanishi.](#)
3. [Jek London “Hayot qonuni” hikoyasi. Ziyouz.com](#)
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
5. Nasiba Eshonqulova. “Bosh qahramon obrazini yaratishda Jek Londonning adabiy mahorati.”